



TIL BILISH SERTIFIKATLARIGA EGA BO'LISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI HAQIDA FIKR-MULOHAZALAR.

Gulsanam Qodirjonova Sherzodbek qizi
ADCHTI, IFO'MT fakulteti, 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'lif o'quv dasturi fanlari orasidan o'rinni o'lgan "Til bilish sertifikatlariga ega bo'lish ko'nikmalarini shakllantirish" fanini o'qitishdan ko'zlangan asosiy maqsadlar borasida so'z yuritildi. Shuningdek, ushbu fanning maqsadiga erishish yo'liida bajarilishi lozim bo'lgan muhim vazifalariga alohida to'xtalib o'tildi.

Kalit so'zlar: til bilish sertifikati, til bilish sertifikatlariga ega bo'lish ko'nikmalarini shakllantirish fani, til o'rganish metodikasi, IELTS, CEFR.

Аннотация. В данной статье рассматриваются основные цели преподавания дисциплины "Овладение навыками получения языков сертификатов", включённо в учебную программу высшего образования. Также особое внимание уделено важным задачам, которые необходимо выполнить для достижения целей данной дисциплины.

Ключевые слова: языковой сертификат, овладение навыками получения языков сертификатов, методика изучения языка, IELTS, CEFR.

Abstract. This article discusses the main objectives of teaching the subject "Skills for Obtaining Language Proficiency Certificates" which is included in the higher education curriculum. Special attention is also given to the key tasks that need to be accomplished to achieve the goals of this subject.

Keywords: language proficiency certificate, skills for obtaining language proficiency certificates, language learning methodology, IELTS, CEFR.

Bugungi kunda oldi o'rinnarda tobora rivojlanib borayotgan sohalardan biri, albatta, ta'lif sohasidir. Ushbu sohaning har bir qismi e'tibordan chetda qolmagan holda mukammallashtirilmoqda. Jumladan, chet tillarini o'qitish metodikalari yanada kuchaytirib borilmoqda. Bunga misol qilib, Oliy ta'lif darsliklariga "Til bilish sertifikatlariga ega bo'lish ko'nikmalarini shakllantirish" fanini kiritilishini olishimiz mumkin. Bu fanga chuqurroq ta'rif berishdan avval, albatta, til bilish sertifikati nimaligini aytib o'tish joiz. Sertifikat-lot. sertum – aniq va facere – qilmoq [3] kabi ma'nolarga ega bo'lib til bilish sertifikati –ma'lum bir shaxsning ma'lum bir tilni qanchalik darajada bilishini tasdiqlovchi rasmiy hujjat hisoblanadi. Bugungi kunda esa bunday rasmiy hujjatlar – sertifikatlar turlari juda ko'payib bormoqda. Albatta, har bir ishni qilishdan ko'zlangan maqsad bo'lgani kabi, chet tillarini ham o'rgangan inson o'zi istagan sertifikatni qo'lga kiritgandagina o'z maqsadiga bir ma'noda erishgan hisoblanadi. Ammo yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, til





bilish sertifikatlari turlari shunchalik ko'pki, ayrim insonlar bularning hammasidan ham xabardor bo'lmasligi yoki o'zining sohasi uchun aynan qaysi biri ko'proq foydaliroq ekanini bilmasligi mumkin. Talabalar katta hayotda bunday xatolarga yo'l qo'ymasligi uchun esa ta'kidlanganidek oliv ta'lilda bu xususda alohida fan o'qitilishi yo'lga qo'yilgan. Fanning asosiy maqsadlari to'g'risida yanada chuqurroq gapiriladigan bo'lsa, talabalar uchun xalqaro va milliy til bilish darajasini tasdiqlovchi sertifikatlar talablariga mos bilim va ko'nikmalarini shakllantirish orqali ularni muvaffaqiyatli test topshirishga tayyorlash asosiy maqsad hisoblanadi. Chunki til bilish sertifikatlarining har biri bir xil bilim darajasini tasdiqlovchi hujjat bo'lsa ham test topshirish usullari va jarayonlari turli xil tuzilgandir. Misol uchun: butun jahonda keng tarqalayotgan til bilish sertifikatlarining bir turi – IELTS (International English Language Testing System) sertifikati hisoblanadi. IELTS – inglizzabon mamlakatda ta'lim olmoqchi, immigratsiya qilmoqchi yoki amaliyot o'tamoqchi bo'lgan kishilar uchun test sinovi. Test ona tili ingliz tili bo'limgan insonlarning bu tilni qanchalik chuqur bilishlarini aniqlashga yordam beradi [1]. Sertifikat, asosan, 4 xil ko'nikmalar: listening (eshitish), reading (o'qish), writing (yozish) va speaking (gapirish) ko'nikmalarini baholash orqali amalga oshiriladi. Yana bir mashhur sertifikat turi – CEFR – tillar bo'yicha umumiy Yevropa ma'lumot tizimi: o'rghanish, o'qitish, baholash (Common European Framework of Reference, CEFR) Yevropa Ittifoqida qo'llaniladigan chet tilini bilish darajalari tizimidir [2]. Bundan tashqari til bilish sertifikatlari orasida TOEFL, TOEIC, CELTA, DELTA va shu kabi ko'plab turlari mavjud. Bularning barchasi qanday topshirilishi, tarkibi va qanday maqsad uchun olinishi borasidagi barcha bilimlar esa til bilish sertifikatlariga ega bo'lish ko'nilmalarini shakllantirish fani orqali o'rgatiladi va bu, albatta, fanning asosiy vazifalaridan biridir. Yana boshqa vazifalari esa testlar tarkibiga kiruvchi ko'nikmalarini o'rgatish bilan birlgilikda talabalar ularni amaliy tarzda ishlab, ushbu ko'nikmalarini rivojlantirishlari, test sinovlari uchun kerak bo'lgan lug'at va grammatikalarni yanada rivojlantirish ta'minlashdan iboratdir. Shu bilan birlgilikda ushbu darslik mobaynida talabalarda til o'rghanish metodikasi ham rivojlanib boradi. Til o'rghanish metodikasi – bu til o'rghanish va o'rgatish jarayonlarini tashkil qilish, boshqarish va yanada mukammallashtirishga oid usullar tizimi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, til bilish sertifikatlariga ega bo'lish ko'nilmalarini shakllantirish fani barcha turdag'i til bilish sertifikatlarining har bir jihatini o'rgatishni asosiy maqsad qilib olgan fan hisoblanadi. Talabalarni haqiqiy imtihonga tayyorlashdagi barcha chora-tadbirlar fanning vazifalari qatoriga kiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jack C. Richards, Willy A. Renanya. " Methodology in Language Teaching: An Anthology of Current Practice. Cambridge university press, 2002.
2. I. Jo'raqulov. "Ingliz tili o'qitish metodikasi". Fan va texnologiya, 2017.



3. Paulino Cullen, Amanda French, Vanessa Jakeman. " The Official Cambridge Guide to IELTS ". Cambridge university press, 2014.

Foydalanilgan internet tarmoqlari:

1. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/IELTS>
2. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/CEFR>.
3. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Sertifikat>

